

**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining  
tizim tashkilotlar tomonidan 2024 yil yanvar-iyun oylarida  
amalga oshirilgan ishlari**  
**MA'LUMOT**

**Me'yoriy hujatlar bilan ta'minlash bo'yicha,** O'zbekiston standartlar institutining <http://uzsti.uz/> manzilidagi rasmiy veb sahifaga kelib tushgan korxona va tashkilotlarning murojaatlari ko'ra **12 ta** O'z MSt ISO, **6 ta** O'z MSt IEC, **118 ta** GOST, **14 ta** GOST R va **75 ta** O'z MSt standartlari joylandi, **700 ga** yaqin standartlar qayta ko'rib chiqildi.

Shu bilan birlgilikda **tadbirkorlik sub'ektlari** va **xo'jalik yurituvchi** sub'ektlarga **1 489 ta** standart foydalanish uchun yetkazildi.

**1 136 tasi GOST, 101 tasi GOST R, 165 tasi O'z DSt va 87 tasi Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan davlat standartlar.**

Shuningdek, korxona va tashkilotlarning murojaatlari bo'yicha **37 ta** xalqaro standartlar (**ISO, IEC, EN, GOST R**) davlat tiliga **tarjima qilindi** va O'zbekiston standartlar instituti tomonidan **tasdiqlandi**.

**Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha,** 2024 yil yanvar-iyun oylarida **69 ta** o'quv ixtisoslik bo'yicha **97 ta** o'quv kurs tashkil qilindi.

O'zbekiston standartlar instituti bazasida **59 ta, 30 tasi onlayn va 6 tasi sayyor** shaklda bo'lib o'tdi. Mazkur o'quv kurslarida **malaka oshirganlar** soni **1 634 nafarni** tashkil etdi.

**1 223 nafari korxona va tashkilotlar hamda 411 nafari Agentlik tizimidan.**

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan vazirlik va idoralar bilan yengil sanoat, charm-poyabzal, elekrotexnika, qurilish va oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tegishli dolzarb bo'lgan **1 700 dan** ortiq xalqaro standartlar ro'yxati shakllantirildi.

Yengil sanoat, charm-poyabzal, elekrotexnika, qurilish, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, metallurgiya, kimyo, ekologiya va boshqa sohalardagi ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlariga doir ISO va IECdan a'zolik doirasida **1 400 dan** ortiq xalqaro **standartlar olindi** va **599 tasi qabul qilindi**.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish standartlari bo'yicha davlatlararo kengashi (**MGS, MTK**) tomonidan jami **65 ta** Texnik qo'mitani murojaatiga asosan tegishli tarmoqlarga so'rovlar yuborilib, ushbu loyihalar bo'yicha tegishli tarmoqlardan **taklif** va **e'tirozlar umumlashtirildi** hamda MGS kengashiga kiritildi.

Bugungi kunda, **26 ta** texnik qo'mita faoliyati to'liq yo'lga qo'yildi, **18 ta** texnik qo'mita Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 martdag'i "Standartlashtirish faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" **177-son qarori** hamda **Idoralararo respublika kengashining 25-1-son majlisi bayonining** 5-ilovasiga **muvofiq qaytadan tashkil etildi**.

**Sinov laboratoriyalarini modernizasiya qilish yo'nalishida yanvar-iyun oylari davomida oylari davomida jami **25 051 dona**, shundan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga **262 dona** sinov bayonnomalari rasmiylashtirildi.**

*Bojxona qo'mitasi **69 ta**, Davlat xavfsizlik xizmati **33 ta**, Prokuratura **7 ta**, Ichki ishlar bosh boshqarmasi **3 ta**, Soliq boshqarmasi **2 ta**, Texnik jixatdan tartibga solish nazorat inspeksiyasi **11 ta**, boshqalar **112 ta**.*

Laboratoriyalarni modernizasiya qilish, akkreditasiya talablariga moslashtirish maqsadida, jami **181 ta** o'lchash vositalari, kimyoviy reaktiv va standart namunalar xarid qilindi.

**Hududiy filial laboratoriyalari Akkreditasiya markazi tomonidan davriy baholash inspeksiya nazoratidan o'tkazildi.** Aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilib, **Qoraqalpog'iston, Sirdaryo, Qo'qon, Olmaliq, Namangan** hududiy laboratoriyanlar faoliyati qayta tiklandi. **Samarqand** fizik-kimyoviy sinovlar laboratoriysi davriy baholash auditidan muvaffaqiyatli o'tib laboratoriya faoliyati to'xtatilmasdan ish faoliyati davom etmoqda.

Sohaga xorijiy tajribani olib kirish, xodimlarning nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini oshirish maqsadida, ushbu sohada yetakchi hisoblangan **Koreya, Turkiya, Belarus** va **Rossiya** davlatlari idoralari bilan muzokaralar olib borildi (**50 nafar** mutaxassis tanlab olindi).

**Mahsulotlarni sertifikatlash yo'nalishida yanvar-iyun oylari davomida **10 084 ta**** (shundan **7 chizma bo'yicha 8 601 ta, 3 chizma 1 480 ta, 4 chizma 3 ta**). **Sifat menejmenti tizimlarini sertifikatlashtirish organi** tomonidan **83 ta** muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirildi.

**Yil davomida **1 400 ta**** korxonaga xalqaro menejment tizimlari standartlarini joriy etish bo'yicha hududlar va tarmoqlar kesimida ro'yxat shakllantirildi hamda viloyat hokimliklari bilan tarmoq jadvallari ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

*Qoraqalpog'istonda **72 ta**, Andijonda **108 ta**, Buxoroda **97 ta**, Jizzaxda **81 ta**, Qashqadaryoda **103 ta**, Navoiyda **79 ta**, Namanganda **110 ta**, Samarqandda **100 ta**, Sirdaryoda **72 ta**, Surxondaryoda **97 ta**, Farg'onada **110 ta**, Xorazmda **95 ta**, Toshkent viloyatida **156 ta** Toshkent shahrida **120 ta**.*

Mazkur tarmoq jadvallariga asosan **551 ta** korxonaga **menejment tizimlari standartlari** joriy qilinishiga ko'maklashib, **muvofiqlik sertifikatlari** rasmiylashtirildi.

*Qoraqalpog'istonda **31 ta**, Andijonda **46 ta**, Buxoroda **44 ta**, Jizzaxda **29 ta**, Qashqadaryoda **45 ta**, Navoiyda **33 ta**, Namanganda **47 ta**, Samarqandda **48 ta**, Sirdaryoda **27 ta**, Surxondaryoda **41 ta**, Farg'onada **46 ta**, Xorazmda **40 ta**, Toshkent viloyatida **59 ta**, Toshkent shahrida **15 ta**.*

**Eksportyor korxonalarining mahsulotlari uchun Yevropa Ittifoqining muvofiqlik belgisi SE markirovkani rasmiylashtirish maqsadida, **7 ta** korxona bilan ishlar olib borilmoqda.**

Hududlardagi **1 040 ta** eksportyor va eksport salohiyatiga ega korxonaga sohaga oid **1 250 ta** amaliy yordam va konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

***Sohalar kesimida:*** standartlashtirish – **414 ta**, metrologiya – **150 ta**, sertifikatlashtirish – **172 ta**, sifat menejment tizimlari masalalari – **340 ta**, qadoqlash va yorliqlash – **84 ta**, boshqa masalalar – **90 ta**.

Hududlardagi **83 ta eksportyor korxonaga** **179 ta muvofiqlikni tasdiqllovchi hujjatlar rasmiylashtirildi.**

**5 ta eksportyor korxonaga Vazirlar Mahkamasining 175-son qarori asosida 13 ta imtiyozli muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi.**

Hududlar bo'yicha, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan hamkorlikda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi **1 050 ta eksportchi korxonalarining ro'yxati shakllantirilib, ularda mavjud xalqaro standartlar va sohaga oid muammolar o'rganildi.**

**Hududlar kesimida:** Qoraqalpog'istonda – **49 ta**, Andijonda – **90 ta**, Buxoroda – **63 ta**, Jizzaxda – **62 ta**, Qashqadaryoda – **21 ta**, Namanganda – **121 ta**, Navoiyda – **18 ta**, Samarqandda – **132 ta**, Sirdaryoda – **64 ta**, Surxondaryoda – **68 ta**, Farg'onada – **97 ta**, Xorazmda – **7 ta**, Toshkent viloyatida – **62 ta**, Toshkent shahrida – **196 ta**.

O'rganish natijasida, **90 ta** tadbirkorlik sub'ektida turli xalqaro standartlar joriy qilinganligi aniqlandi.

**Standartlar kesimida:** ISO 9001 – **54 ta**, ISO 14001 – **4 ta**, ISO 22 000 – **36 ta**, ISO 45 001 – **5 ta**, FSSC 22 000 – **4 ta**, HACCP – **3 ta**, HALAL – **2 ta**, Organic – **6 ta**, Global GAP – **18 ta**, SEDEX – **2 ta**, Kosher – **3 ta**.

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, **SMT**, sinovlar, metrologiya va boshqa yo'nalishlar bilan bog'liq muammolar **47 ta** korxonada aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.

**Sohalar kesimida:** standartlashtirish – **2 ta**, sertifikatlashtirish – **2 ta**, sifat tizimlarini joriy qilish – **34 ta**, sinovlar – **8 ta**.

Eksport qilinadigan maxsulotlar turini kengaytirish, yangi bozorlarga kirib borish maqsadida, eksportchi korxonalar va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlani haridorgir **oziq-ovqat**, **qishloq xo'jaligi**, **to'qimachilik** va **yengil sanoat** yo'nalishlaridagi **10** turdag'i tayyor maxsulotning har biriga **10 tadan** yangi istiqbolli bozorlar aniqlandi, mahsulotlarga qo'yilgan talablar o'rganildi.

Ispaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Italiya, Daniya, Norvegiya, Lyuksemburg, Ruminiya, Malta, Litva, Latviya, Bolgariya, Polsha, Belgiya, Shvesiya, Chexiya, Avstriya, Argentina, Chili, AQSh, Meksika, Yaman, Bahrayn, Quvayt, Ummon, Pokiston.

**Eksportyor korxonalarini sohaga oid imtiyozlar va yangiliklar bilan keng tanishtirishda mahalliy gazetalarda **10 ta** maqola chop etildi, **10 marotaba** TV va mahalliy radio kanallarda **7 ta**, **146 marotaba** ijtimoiy tarmoq sahifalarida chiqishlar qilindi, **41 marotaba** seminar-treninglar o'tkazildi.**

**Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti** (OIML) hujjatlari asosida metrologik me'yor va qoidalarni qabul qilish reja-jadval ijrosini ta'minlash maqsadida jami **6 ta** milliy **standart** loyihalari ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda Standartlar instituti tomonidan ro'yxatga olindi.

**O'lchashlar yagona birlikda bo'lishni ta'minlash borasida** jami **6 ta** milliy **standart** (*ionlovchi nurlanish, putur yetkazmasdan tekshirish, neftegaz, gaz sarfi va bosim yo'nalishlari*) ro'yxatga olindi.

**Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining** (BIPM) bazasida **ilk bor** O'zbekiston Respublikasining jami **5 ta** (*radiatsiya yo'nalishi – 3 ta, fotometriya yo'nalishi – 2 ta*)

kalibrlash va o'lhash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlari (*SMS-qatorlar*) ro'yxatga olindi.

**KOOMET** doirasida **massa** yo'nalishi bo'yicha **yangi** (*COOMET.M.M-S7*) solishtirish loyihasida ishtirok etilmoqda.

**TUBITAK UME** platformasida **BIPM** Metrolog xodimlar salohiyatini oshirish va bilimlarni uzatish (**CBKT**) loyihalarida institutning **1 nafar** mutaxassisini tanlov natijalariga ko'ra **g'olib deb topildi**.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashi (**MGS**)ning "Luchshiy molodoy metrolog **MGS SNG 2024**" xalqaro pilot tanloving "**Luchshiy molodoy metrolog MGS SNG 2024 v sfere prakticheskoy metrologii**" nominatsiyasida institutning mutaxassislari **I** va **III darajali** g'olib sifatida e'tirof etildi.

**2024 yilning yanvar-iyun oylarida davomida jami 44 ta organ akkreditatsiyadan o'tkazildi** (jami **558 ta** mavjud), jumladan:

**29 ta** sinov laboratoriyalari (jami **267 ta**);

**3 ta** kalibrlash laboratoriyalari (jami **26 ta**);

**4 ta** qiyoslash laboratoriyalari (jami **117 ta**);

**3 ta** menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi (jami **26 ta**);

**5 ta** mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi (jami **92 ta**) akkreditatsiyadan o'tkazildi.

**2024-yilning yanvar-iyun oylarida** sinov laboratoriyalarni texnik jihatdan malakaliligini ma'qullashdan o'tkazish uchun jami **254 ta** buyurtma kelib tushgan bo'lib, ulardan **190 ta** ma'qullashdan o'tkazish jarayoni yakunlangan, qolgan **64 ta** buyurtma bo'yicha ma'qullashdan o'tkazish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

**Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi** tomonidan **219 ta** korxonada tekshirish o'tkazildi.

Natijada tekshirilgan **1 117 ta** mahsulotdan **966 tasi (86,8 foiz)** mahsulot **nomuvofiqligi**, **3 454 ta** o'lhash vositalaridan **1 593 tasi (46,1%)** **qiyoslanmaganligi**, **99 ta** mahsulot **muvofiqlik sertifikatisiz** realizatsiya qilinganligi, **55 turdag'i** mahsulotlar texnik reglament va standart talabida belgilangan sifat ko'rsatkichlariga **nomuvofiqligi** aniqlandi.

**803 ta (83,1 %) oziq-ovqat, 73 ta (7,5 %) qurilish, 19 ta (1,9 %) yengil sanoat, 23 ta (2,3 %) neft-gaz, 19 ta (1,9 %) elektrotexnika, 15 ta (1,5 %) metall, 14 ta (1,4 %) kimyo sanoati** mahsulotlari amaldagi texnik reglament va standart talablari (markirovka, saqlash sharoiti, davriy sinovlar, sifat ko'rsatkichi) nomuvofiqligi tasdiqlandi.

Bundan tashqari **20 ta** davlat tashkilotida davlat nazorati o'tkazildi.

Natijada **17 ta** tibbiyot muassasalarida **2 664 ta** o'lhash vositalaridan **2 378 tasi (89,2%)** **qiyoslanmaganligi**, **1 ta** tibbiyot muassasasida amaldagi texnik reglament va standart talablari (saqlash sharoiti) **buzilganligi** aniqlandi.

Shuningdek, **2 ta** sertifikatlashtirish idoralari tomonidan rasmiylashtirilgan **58 ta** muvofiqlik sertifikatlar hujjatlar to'plamidan **51 ta (87,9 %)** hujjatlar to'lamida **nomuvofiqliklar** aniqlandi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijasida qonunbuzilish holatlari aniqlangan korxonalarining **233 nafar** mas'ullariga nisbatan MjtKning **212, 213** va **214-** moddalariga asosan ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasi va **140 ta** korxonaga nisbatan moliyaviy jarima qo'llash uchun xujjatlar rasmiylashtirilgan.